



## INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA SEMANTIK TRANSFORMATSIYA ASOSIDA YASALGAN TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Fotima Abdullayeva,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1695>

MAQOLA HAQIDA/O'QITAT'BYE

**Qabul qilindi:** 18-may 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 21-may 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-B

**Maqola raqami:** 36

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

semantik transformatsiya, termin, terminologiya, struktur-semantik xususiyat, ma'no ko'chishi, metafora, metonimiya, terminlashuv, ingliz tili, rus tili, o'zbek tili

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida shakllangan terminlarning struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Semantik transformatsiya terminologik birliklarning yangi ma'no kasb etishi, umumiste'mol so'zlarning maxsus ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalashga moslashuvi hamda metaforik, metonimik va funksional ma'no ko'chishi orqali yuzaga keladi. Maqolada uch tildagi terminlarning tuzilishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi va terminlashuv jarayonidagi o'xshash hamda farqli jihatlarini yoritiladi. Tadqiqot natijalari semantik transformatsiya termin yaratishning samarali usullaridan biri ekanini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda semantik transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan kognitiv va kommunikativ omillar ham e'tiborga olinadi. Terminlarning shakllanishida inson tafakkuridagi assotsiativ bog'liqlik, konseptual metaforalar hamda tajriba asosida yuzaga keladigan bilim strukturasi muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, terminlar nafaqat lingvistik birlik, balki muayyan soha bilimini modellashtiruvchi kognitiv vosita sifatida ham qaraladi. Shuningdek, ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida hosil bo'lgan terminlarning standartlashuv jarayoni ham tahlilga tortiladi. Bu jarayonda xalqaro terminologik me'yorlar, tarjima amaliyoti hamda milliy til tizimlarining ichki qonuniyatlari o'zaro ta'sirlashadi. Natijada terminlarning barqarorlashuvi va ilmiy kommunikatsiyada bir xilda qo'llanilishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli muhit va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi semantik transformatsiya jarayonini yanada jadallashirayotgani qayd etiladi. Yangi texnologik tushunchalar mavjud leksik birliklar asosida tezkor terminlashuv orqali shakllanib, global ilmiy makonda keng tarqalmoqda.

ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 18 may 2026

**Approved:** 21 may 2026

**Volume:** 18-B

**Paper number:** 36

**KEYWORDS**

semantic transformation, term, terminology, structural and semantic features, meaning transfer, metaphor, metonymy, terminologization, English, Russian, Uzbek

ANNOTATION

This article examines the structural and semantic features of terms formed through semantic transformation in English, Russian and Uzbek. Semantic transformation is observed when common lexical units acquire new specialized meanings and become part of scientific and technical terminology. This process is also realized through metaphorical, metonymic and functional transfer of meaning. The article focuses on the structure of terms, semantic broadening, semantic narrowing, and the similarities and differences in the process of terminologization in the three languages. The findings indicate that semantic transformation is one of the productive ways of term formation. This study also takes into account the cognitive and communicative factors that arise in the process of semantic transformation. In the formation of terms, associative connections in human thinking, conceptual metaphors, and the structure of knowledge that arises on the basis of experience play an important role. From this point of view, terms are considered not only as linguistic units, but also as cognitive tools that model knowledge in a particular field. The process of standardization of terms formed on the basis of semantic transformation in English, Russian, and Uzbek is also analyzed. In this process, international terminological standards, translation practice, and the internal laws of national language systems interact. As a result, the stabilization of terms and their uniform use in scientific communication are ensured. In addition, it is noted that the development of modern digital environments and artificial intelligence technologies is further accelerating the process of semantic transformation. New technological concepts are formed through rapid terminology based on existing lexical units and are widely distributed in the global scientific space.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya tizimini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Fan, texnika, axborot texnologiyalari, tibbiyot, iqtisodiyot hamda ijtimoiy-gumanitar sohalarining jadal rivojlanishi yangi terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Terminlar nafaqat yangi birliklar yaratish orqali, balki mavjud umumxalq leksikasining semantik jihatdan qayta shakllanishi asosida ham hosil bo'ladi. Ayniqsa, semantik transformatsiya hodisasi terminologik tizimning boyishida muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda oddiy so'zlar yangi ilmiy yoki kasbiy ma'nolarni ifodalashga moslashib, maxsus terminologik birlik sifatida faol qo'llanadi.

Semantik transformatsiya til taraqqiyotining tabiiy jarayoni bo'lib, unda metafora, metonimiya, funksional o'xshashlik, ma'no kengayishi va ma'no torayishi kabi hodisalar asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *mouse* termini dastlab "sichqon" ma'nosini bildirgan bo'lsa, kompyuter texnologiyalarida tashqi qurilma nomi sifatida yangi terminologik ma'no kasb etgan. Rus tilidagi *окно* so'zi dastlab bino qismi ma'nosida qo'llangan bo'lsa, axborot texnologiyalarida dastur interfeysidagi "oyna" tushunchasini anglatadi. O'zbek tilida esa *tarmoq*, *uzel*, *xotira* kabi birliklar umumiste'mol ma'nodan texnik terminologik ma'noga o'tgan. Bunday holatlar semantik transformatsiyaning termin hosil qilishdagi mahsuldorligini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv va xalqaro ilmiy integratsiya sharoitida ingliz, rus va o'zbek tillaridagi terminologik tizimlarni qiyosiy jihatdan o'rganish

dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mazkur tillar turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, termin yaratish jarayonida umumiy semantik mexanizmlardan foydalanadi. Shu bilan birga, har bir tilning milliy-madaniy va lingvistik xususiyatlari terminlarning strukturasi hamda semantik taraqqiyotida o'ziga xos jihatlarni yuzaga keltiradi. Terminlarning struktur-semantik tahlili esa ilmiy kommunikatsiya samaradorligini oshirish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish hamda terminologik standartlashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Terminologiya va semantik transformatsiya masalalarini o'rganish tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada turli maktablar va olimlar tomonidan muhim nazariy qarashlar ishlab chiqilgan. Termin tushunchasini tizimli ravishda ilmiy asoslashda Eugen Wüsterning ishlari alohida o'rin tutadi. U termini avvalo ma'lum bir tushuncha bilan uzviy bog'liq bo'lgan lingvistik birlik sifatida talqin qiladi va terminologik faoliyatda asosiy e'tibor so'zning tashqi shakliga emas, balki uning ifodalayotgan konseptual mazmuniga qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. Wüster yondashuvida terminologik birliklar aniq tizim ichida o'z o'rniga ega bo'lib, har bir termin muayyan ilmiy tushunchani qat'iy chegaralangan holda ifodalaydi. Bu qarash semantik transformatsiya asosida hosil bo'lgan terminlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki umumxalq leksikasiga mansub so'zlar terminlashuv jarayonida o'z ma'nosini aniqlashtiradi, toraytiradi va

maxsus sohaviy tushunchaga xizmat qila boshlaydi. Masalan, *mouse*, *window*, *network* kabi birliklar umumiy ma'nodan texnik ma'noga o'tish jarayonida aynan tushunchaviy asosda qayta shakllanadi va terminologik tizimga integratsiyalashadi [1, 45–48-bet].

Terminologiyani kommunikativ va amaliy jarayonlar bilan bog'lab o'rganishda J. C. Sagerning qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U terminologiyani maxsus sohalarda axborotni aniq, ixcham va bir ma'noli tarzda uzatishga xizmat qiluvchi vosita sifatida izohlaydi. Sagerning yondashuvida terminlar nafaqat lingvistik birlik, balki tarjima, standartlashtirish va professional kommunikatsiya jarayonlarining asosiy elementi sifatida qaraladi. Bu nuqtai nazar ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida shakllangan terminlarning funksional qo'llanishini yoritishda muhimdir. Chunki *memory* – *память* – *хотира*, *field* – *поле* – *maydon*, *cell* – *ячейка* – *katakcha/hujayra* kabi birliklar turli tillarda umumiy lug'aviy ma'noni saqlagan holda, fan-texnika sohasida yangi maxsus terminologik mazmunga ega bo'ladi. Bu esa terminlarning tarjima va ekvivalentlik munosabatlarini ham murakkablashtiradi hamda ularning semantik transformatsiya asosida shakllanishini tasdiqlaydi [2, 112–116-bet].

M. Teresa Cabré terminologiyani yanada kengroq – lingvistik, kognitiv va kommunikativ hodisa sifatida talqin qiladi. Uning kommunikativ terminologiya nazariyasiga ko'ra, terminlar tayyor, qat'iy birliklar emas, balki muayyan nutqiy vaziyat va diskurs jarayonida shakllanadigan hamda faollashadigan birliklardir. Bu yondashuv semantik transformatsiya hodisasini dinamik jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Ya'ni bir xil so'z turli sohalarda turlicha terminologik ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *virus* termini biologiyada kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar tizimini anglatsa, axborot texnologiyalarida zararli dastur sifatida talqin qilinadi. Bu holat termin ma'nosining faqat leksik shakl bilan emas, balki kommunikativ muhit va bilim sohasi bilan ham belgilanishini ko'rsatadi [3, 67–70-bet].

Shuningdek, rus tilshunosligida V. M. Leychik va O. S. Axmanova tomonidan terminologiyaning struktur va semantik jihatlarini keng o'rganilgan. Ularning ishlari terminlarning tizimliliigi, semantik aniqligi va sohaviy differensiasiyasini yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Axmanovanning lingvistik terminlar lug'atida terminlarning semantik chegaralanishi va kontekstual qo'llanishi masalalari batafsil izohlangan [4, 201–205-bet; 5, 318–321-bet].

Umuman olganda, Wüster, Sager va Cabré tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar terminologiyani turli aspektlarda yoritadi: Wüster –

tizimli va konseptual asosni, Sager – kommunikativ va amaliy funksiyani, Cabré esa kognitiv va diskursiv tabiatni asoslab beradi. Ushbu qarashlar ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlarning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishda muhim nazariy baza vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada **qiyosiy-semantik tahlil metodidan** foydalanildi. Ushbu metod ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida shakllangan terminlarning ma'no o'zgarishi, struktur tuzilishi va terminologik vazifasini o'zaro solishtirish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida umumiste'mol so'zlarning maxsus terminologik ma'noga o'tishi, metaforik va metonimik ko'chish asosida yangi termin sifatida qo'llanishi hamda uch tildagi muqobil birliklarning semantik mosligi tahlil qilindi.

Qiyosiy-semantik tahlil orqali *mouse* – *мышь* – *sichqoncha*, *window* – *окно* – *oyna*, *network* – *сеть* – *tarmoq*, *memory* – *память* – *хотира* kabi terminlarning dastlabki lug'aviy ma'nosi va sohaviy terminologik ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Bu metod terminlarning faqat tarjimaviy ekvivalentligini emas, balki ularning ma'no kengayishi, ma'no torayishi va funksional o'xshashlik asosida shakllanish darajasini ham ochib berishga xizmat qiladi.

**Natijalar.** Tadqiqot davomida ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlar asosan umumiste'mol so'zlarning maxsus sohaviy ma'no kasb etishi orqali shakllanishi aniqlandi. Bunday terminlarda dastlabki lug'aviy ma'no butunlay yo'qolmaydi, balki yangi ilmiy-texnik tushunchani ifodalash uchun qayta talqin qilinadi.

Masalan, ingliz tilidagi *mouse* so'zi dastlab "sichqon" ma'nosini bildirgan. Kompyuter texnologiyalarida esa shakliy va funksional o'xshashlik asosida "kompyuter boshqaruv qurilmasi" ma'nosida terminlashgan. Rus tilida bu termin *мышь*, o'zbek tilida esa *sichqoncha* shaklida qo'llanadi. Bu yerda uchala tilda ham metaforik ko'chish mavjud: hayvon nomi texnik qurilma nomiga aylangan.

Yana bir misol sifatida *window* – *окно* – *oyna* terminini ko'rsatish mumkin. Dastlab bu so'zlar bino devoridagi yorug'lik tushadigan qismni bildirgan. Axborot texnologiyalarida esa dastur interfeysida ochiladigan alohida ish maydoni ma'nosini anglatadi. Bu holatda termin semantik transformatsiya orqali predmetning tashqi ko'rinishi va funksional vazifasi asosida yuzaga kelgan. Ingliz va rus tillarida termin bevosita umumiste'mol so'z asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida *oyna* so'zi mazmunan mos ekvivalent sifatida ishlatiladi.

#### Quyidagi misollar semantik transformatsiyaning uch tildagi ko'rinishini aniqroq ko'rsatadi:

Inglizcha termin	Ruscha termin	O'zbekcha termin	Dastlabki ma'no	Terminologik ma'no	Transformatsiya turi
<i>mouse</i>	<i>мышь</i>	<i>sichqoncha</i>	hayvon nomi	kompyuter qurilmasi	metaforik ko'chish
<i>window</i>	<i>окно</i>	<i>oyna</i>	bino qismi	dastur interfeysi elementi	funksional-metaforik ko'chish
<i>memory</i>	<i>память</i>	<i>хотира</i>	eslab qolish qobiliyati	axborotni saqlash qurilmasi yoki tizimi	ma'no kengayishi
<i>network</i>	<i>сеть</i>	<i>tarmoq</i>	to'r, bog'lanma	kompyuter yoki aloqa tizimi	metaforik ko'chish
<i>field</i>	<i>поле</i>	<i>maydon</i>	yer maydoni	ma'lumotlar bazasi yoki fan sohasi elementi	ma'no kengayishi
<i>cell</i>	<i>ячейка</i>	<i>katakcha / hujayra</i>	kichik bo'linma	jadval, biologik yoki texnik birlik	ma'no torayishi va kengayishi

Tahlil shuni ko'rsatadiki, semantik transformatsiya natijasida terminlarning strukturasi ko'pincha sodda shaklda saqlanadi. Ya'ni mavjud so'z yangi terminologik ma'no oladi, lekin uning tashqi grammatik shakli keskin o'zgar olmaydi. Masalan, *memory*, *память*, *хотира* so'zlari shaklan oddiy leksik birlik bo'lsa-da, axborot texnologiyalari sohasida maxsus termin sifatida ishlatiladi. Bu holat semantik transformatsiyaning iqtisodiy va qulay termin yaratish usuli ekanini ko'rsatadi.

Ayrim terminlarda esa semantik transformatsiya bilan birga struktur o'zgarish ham kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi *cloud* so'zi "bulut" ma'nosidan kelib chiqib, *cloud computing* birikmasida "bulutli hisoblash texnologiyasi" ma'nosini anglatadi. Rus tilida bu tushuncha *облачные вычисления*, o'zbek tilida esa *bulutli hisoblash* shaklida qo'llanadi. Bu yerda sodda so'z terminologik birikma tarkibida yangi maxsus ma'no kasb etgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, ingliz tilidagi ko'plab semantik transformatsiyaga uchragan terminlar rus va o'zbek tillariga tarjima yoki kalkalash orqali kirib keladi. Masalan, *artificial intelligence* – *искусственный интеллект* – *sun'iy intellekt*, *data mining* – *интеллектуальный анализ данных* – *ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish* kabi birliklarda semantik moslashtirish va struktur qayta qurish jarayoni kuzatiladi. Bu holat terminlarning faqat ma'no jihatidan emas, balki sintaktik tuzilish jihatidan ham tillararo farqlanishini ko'rsatadi.

Natijalar asosida quyidagi xulosaviy holatlar aniqlandi: birinchidan, ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya termin yaratishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, terminlar ko'pincha metafora, metonimiya, funksional o'xshashlik, ma'no kengayishi va ma'no torayishi asosida shakllanadi. Uchinchidan, ingliz tilida bunday terminlar ko'pincha qisqa va sodda shaklda bo'lsa, rus va o'zbek tillarida ular ba'zan tarjima, izohlash yoki birikma shaklida beriladi. To'rtinchidan, semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlar terminlar ilmiy-texnik kommunikatsiyada aniqlik, ixchamlik va tushunarlilikni ta'minlaydi.

**Muhokama.** Ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, terminologik tizimlarning rivojlanishi bevosita umumxalq leksikasining ichki semantik imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har uch tilda ham termin hosil bo'lishining muhim mexanizmlaridan biri sifatida metaforik va metonimik ko'chish, ma'no kengayishi hamda ma'no torayishi jarayonlari yetakchi o'rin egallaydi. Bu jarayonlar natijasida oddiy so'zlar ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalovchi maxsus birliklarga aylanadi va terminologik tizimga integratsiyalashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, semantik transformatsiya asosida shakllangan terminlar ko'pincha kognitiv asosga ega bo'lib, inson tafakkuridagi assotsiativ bog'liqliklar orqali yuzaga keladi. Masalan, *mouse* – *мышь* – *sichqoncha* misolida hayvonning tashqi ko'rinishi va harakat xususiyatlari kompyuter qurilmasining shakli va funksiyasi bilan

bog'lanadi. Bu esa metaforik modellashtirish orqali yangi termin hosil bo'lishini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, *window* – *окно* – *оуна* terminida ham vizual o'xshashlik va funksional analogiya asosiy semantik ko'chish omili sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holatlar termin yaratilishida insonning perceptiv tajribasi muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Uch tildagi materiallar qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida semantik transformatsiya ko'proq ixcham va sodda leksik birliklar shaklida yuzaga keladi, ya'ni bir so'zning o'zi termin vazifasini bajaradi (*memory, network, cloud*). Rus tilida esa bunday birliklar ko'pincha morfologik moslashuv va semantik kalkalash orqali qabul qilinadi (*память, сеть, облако*), bu esa terminlarning tizimga integratsiyasida tarjima va moslashtirish jarayonining kuchli ekanini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa terminlar ko'pincha ikki yo'l orqali shakllanadi: bevosita kalkalash (*tarmoq, хотира, оуна*) yoki izohli birikmalar orqali (*bulutli hisoblash, ma'lumotlar bazasi*). Bu holat o'zbek terminologiyasining adaptiv va izohlovchi xarakterga ega ekanligini anglatadi.

Semantik transformatsiya natijasida yuzaga kelgan terminlarning yana bir muhim xususiyati ularning ko'pqatlamli ma'no strukturasi ega ekanligidir. Bunday terminlar bir vaqtning o'zida ham umumxalq ma'nosini, ham maxsus sohaviy ma'noni saqlab qoladi. Masalan, *field* – *поле* – *maydon* so'zi kundalik nutqda yer maydonini bildirsa, ilmiy kontekstdagi qo'llanishida ma'lumotlar maydoni yoki ilmiy soha tushunchasini ifodalaydi. Bu esa terminlarning kontekstga bog'liq semantik faollashuvini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida terminlarning struktur barqarorligi va semantik dinamikni o'rtasidagi muvozanat qayd etiladi. Ko'pchilik semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlar shaklan o'zgarishda holda yangi ma'no kasb etadi, bu esa ularning kommunikativ jihatdan qulayligini oshiradi. Shu bilan birga, ayrim hollarda struktur o'zgarish ham kuzatiladi, masalan *cloud computing* – *облачные вычисления* – *bulutli hisoblash* kabi birikmalarda terminologik birliklar kengaytirilgan sintaktik model asosida shakllanadi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi semantik transformatsiya jarayonini yanada tezlashtirmoqda. Raqamli muhitda yangi tushunchalar tezda mavjud leksik birliklar asosida

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – 214 S.
2. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – 254 p.
3. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.
4. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 5-е изд. – Москва: Либроком, 2012. – 256 с.
5. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.
6. Leichik V. M. Terminovedenie: predmet, metody, struktura. – 5-е изд. – Москва: Librokom, 2012. – 256 с.
13. .

nomlanmoqda va global terminologik tizimga kirib bormoqda. Bu jarayon ingliz tilining dominant mavqei kuchaytiradi, chunki ko'plab yangi terminlar avval ingliz tilida shakllanib, keyinchalik rus va o'zbek tillariga adaptatsiya qilinadi. Natijada tillararo terminologik moslashuv va standartlashuv jarayonlari faollashadi.

Semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlar uch tilda ham ilmiy tafakkurning umumiy kognitiv mexanizmlariga tayanadi, biroq ularning lingvistik ifodalanish shakli milliy til tizimining ichki qonuniyatlariga mos ravishda farqlanadi. Bu esa terminologik tizimlarning bir tomondan universal, ikkinchi tomondan esa milliy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Terminologik tizimlarning rivojlanishi jarayonida umumiste'mol leksik birliklar yangi ilmiy va texnik tushunchalarni ifodalash vazifasini bajarib, maxsus terminologik ma'no kasb etadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya, biologiya va texnika sohalarida metaforik hamda funksional semantik ko'chish asosida yuzaga kelgan terminlar keng qo'llanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, *mouse* – *мышь* – *sichqoncha*, *window* – *окно* – *оуна*, *memory* – *память* – *хотира*, *network* – *сеть* – *tarmoq* kabi terminlar uch tilda ham o'xshash semantik mexanizmlar orqali shakllangan. Bunday birliklarda dastlabki lug'aviy ma'no va terminologik ma'no o'rtasida semantik bog'liqlik saqlanib qoladi. Bu esa terminlarning foydalanuvchi tomondan tezroq anglanishi va ilmiy kommunikatsiyada samarali qo'llanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida ingliz tilining xalqaro ilmiy til sifatidagi mavqei tufayli ko'plab terminlar rus va o'zbek tillariga tarjima, transliteratsiya yoki kalkalash asosida kirib kelayotgani aniqlandi. Natijada terminlarning ayrimlari sodda shaklda, boshqalari esa birikma yoki izohli konstruksiya tarzida qo'llanmoqda. Bu holat tillarning struktur xususiyatlari va milliy terminologik an'analari bilan bog'liqdir. Semantik transformatsiya asosida yasalgan terminlarni struktur-semantik jihatdan o'rganish terminologiya nazariyasini boyitish, ilmiy tarjima sifatini oshirish hamda turli tillardagi terminologik tizimlarni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida lingvoterminologik, qiyosiy va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

7. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Sovetskaya entsiklopediya, 1966. – 608 s.

8. Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – 214 S.

9. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – 254 p.

10. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p.

11. ISO 704:2009. Terminology work – Principles and methods. – Geneva: International Organization for Standardization, 2009. – 76 p.

12. ISO 1087-1:2000. Terminology work – Vocabulary – Part 1: Theory and application. – Geneva: ISO, 2000. – 33 p